

IDEOSPHERE
IDEOSPHERE
IDEOSPHERE
IDEOSPHERE
IDEOSPHERE
IDEOSPHERE
IDEOSPHERE
IDEOSPHERE

**2022/
№02 (4)**

ISSN: 2181-2640



ISSUE 2 (4)

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

Журналнинг ушбу сони **Республика Маънавият ва маърифат маркази,
Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти** билан ҳамкорликда
тайёрланди

UZBEKISTAN, TASHKENT 2022

**Бош
муҳаррир:**

**Ўтамурадов Акбар – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети Фуқаролик жамияти ва хукуқ таълими кафедраси профессори**

**Хожиев Тунис Нуркосимович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори
(PhD), доцент. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети**

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**

Ideaspere илмий-назарий ва ижтимоий-сиёсий журнали таҳририят аъзолари

1. Эргашев Ибодулла - сиёсий фанлари доктори. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Фуқаролик жамияти ва хукуқ таълими кафедраси профессори (Ўзбекистон)
2. Резвани Бобек - Амстердам университети профессори. Сиёсий фанлар доктори. (Нидерландия)
3. Агзамхўжаева Соида Сабитхановна - фалсафа фанлари доктори. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети профессори. (Ўзбекистон)
4. Рӯзиева Рухсора Ходиевна - фалсафа фанлари доктори. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)
5. Мусаев Одил Раҳматович - фалсафа фанлари доктори. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)
6. Мавлонов Жўрабек Ёрқулович - Сиёсий фанлар доктори. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти (Ўзбекистон)
7. Нишанбанова Энажон Зарифбозеана - фалсафа доктори (PhD). Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти (Ўзбекистон)
8. Муҳаммадиева Ойниса Мустафакуловна - фалсафа фанлари номзоди. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти, (Ўзбекистон)
9. Ҳудайназаров Самад Ҳудайберганович - фалсафа фанлари номзоди. Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти, (Ўзбекистон)
10. Юсубов Жамшид Кадомович - фалсафа доктори (PhD). Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти, (Ўзбекистон)
11. Атавуллоев Миркомил Аҳматович - фалсафа доктори (PhD) Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти в.б., (Ўзбекистон)
12. Исанова Гулбакор Тахировна - фалсафа доктори (PhD) Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти в.б. (Ўзбекистон)
13. Ҳолмаҳматов Азим Ҳазратқулович - сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажхамаси ходими. (Ўзбекистон)
14. Жамалов Нодир Касимханович- юридик фанлари номзоди. Тошкент давлат педагогика университети доценти (Ўзбекистон)
15. Содиков Улугбек Жўраевич - фалсафа доктори (PhD) Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти (Ўзбекистон)
16. Тошов Ҳуршид Илхомович - фалсафа доктори (PhD) Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти (Ўзбекистон)
17. Турсунов Равшан Нормуродович - тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти (Ўзбекистон)
18. Хайназаров Баҳромжон Баҳтиёрович - тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти (Ўзбекистон)
19. Мажхамов Улугбек Абдуғаппаровиҷ - фалсафа доктори (PhD) Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти (Ўзбекистон)
20. Зоитов Элёр Ҳолмаматовиҷ - социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети доценти (Ўзбекистон)
21. Үразалиева Гулшода Бекпулатовна - Фалсафа фанлари номзоди, "Тошкент ирригация ва қишлоқ ҳўжалигини механизациялаш мухандислари институти" Миллий тадқиқот университети

IDEOSPHERE

**Ilmiy jurnalı
Muassis:**

"Unibooks" MCHJ

**Ideosphere ilmiy jurnal sifatida 2020-yil
31-mart kuni O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni
rivojlantirish agentligidan №1442 raqam
bilan ro'yxatga olingan.**

Manzilimiz: Toshkent shahar

Universitet ko'chasi 4-uy

Elektron pochta:

info@idesphere.uz Telefon:

+998908056185 Telegram:

@idesphereuz Veb-site:

idesphere.uz

МУНДАРИЖА

| | | |
|---|--|---------|
| <i>Тұраев Шавкат Нишонович</i> | Гиёсиеат ва мафкуравий полигонлар | 5-9 |
| <i>Эшов Хурийд Ҳуррамович, Қаҳхарова Дилағұрәз Абдуғайфоровна</i> | Ёшларниң билім даражасини ошириш ғоявий тарбиянинг ілмий-назарий асосларини мустахкамлайды | 10-16 |
| <i>Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich</i> | Milliy g'oyani yoshlar ongi va qalbiga singdirishda interfaol metodlardan foydalanishning ba'zi jihatlari | 16-22 |
| <i>Н.Хусанова</i> | Таҳдид: намоён бўлиши ва жамият ривожига салбий таъсири | 23-28 |
| <i>Гулшада Ўразалиева</i> | Гендер таълимини такомиллаштириш – гендер тенглитеши таъминлашниң муҳим шарти | 29-36 |
| <i>Очилова Баҳти Муродовна</i> | Ғарб ва Шарқ ахлоқий қарашларининг шаклланиш тарихи | 37-43 |
| <i>Н.Б.Нишанбаева</i> | Шарқ мамлакатлари давлат бошқаруви ва сайлов институтининг шаклланишида ахлоқ масалалари | 44-50 |
| <i>Arziqulov Elboy Azim o'g'li</i> | munosabatlar tizimida iste'molchilik tamoyilining amal qilish | 51-57 |
| <i>Мадрахимов Алишер Усубжон Ўғли</i> | Ижтимоий тармоқлар ёшларга маънавий таъсир кўрсатувчи восита сифатиди | 58-64 |
| <i>Курбонов Тоҳир</i> | Маънавий тикланиш негизида миллий менталитетнинг ўзгариши | 63-72 |
| <i>А.М.Муинов</i> | Вагтанинварлик тарбияси – давр талаби | 73-79 |
| <i>G'oғir Amonov</i> | | 80-85 |
| <i>Ахророва Шаҳло Ўринбоевна</i> | Маданият ва санъатнинг маънавий мөнкияти | 86-91 |
| <i>Қаҳарова Мунира</i> | Жамият хакидаги фикрларнинг хилма-хиллиги | 92-99 |
| <i>Баҳодиров Баҳром Баҳодир Ўғли</i> | Ижтимоий сиёсат моделлари транформация жараёнларининг ўзига хос жиҳатлари | 100-107 |
| <i>Инатов Умид</i> | Маънавий тараккиётда ижтимоий адолат омили | 107-111 |
| <i>Тұраев Камолиддин Самадович</i> | Интернетнинг таргигот ва ижтимоий фикрни шакллантиришдаги глобал имкониятлари тадрижи | 112-121 |
| <i>Джўраев Фарҳод Қурбонбоевич</i> | Ҳарбий хизматчилар маънавий-ахлоқий ва мафкуравий дунёқарашини шакллантиришининг тарихий-фалсафий талқини | 122-130 |
| <i>Мусаев Умиджон Сайдкамолович</i> | Ёшларниң онги ва тафаккурини захарловчи ёт ғоялар халқининг маънавий ҳафғозлигига таҳдид | 131-136 |
| <i>Н.Хусанова</i> | Мафкура ва ғоялар жамиядаги муаммоларнинг ечими бўла олиши мумкиним? | 137-142 |

MILLIY G'YOYANI YOSHLAR ONGI VA QALBIGA SINGDIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING BA'ZI JIHATLARI

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti
falsafa doktori (PhD) E-mail:tashmetovtuxtasin@gmail.com*

Annotatsiya: Biz milliy g'oya, ma'naviyat, milliy mafkura, milliy g'urur, umuminsoniy qadriyat kabi oliv insoniy tushunchalarni dars jarayonida interfaol usullar orqali singdirish maqsadga muvofiqliqdır. Shu boisdan, interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Ana shundagina O'zbekistonlik yoshlari dunyodagi eng yuqori salohiyatlari bo'lgan tengdoshlari bilan bemalel bahslasha oladilar. Zero, xozirgi yosh avlod shunday qobilyatga ega bo'lishi kerakki, u maqsad qo'ya oladigan va o'z oldiga qo'ygan maqsadni yecha oladigan bo'lishi kerak, yuqori madaniy saviyada mustaqil fikrlay olishi va ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda o'z o'rnnini topa olishi bugungi kunning davr talabidir.

Kalit so'zlar: Ta'lif, ma'naviyat, texnologiya, axborot kommunikatsiya, modernizatsiya, kompyuter, multimedia, kreativlik, shaxs, oila, milliy g'oya, ma'naviyat, mafkura, madaniyat, texnologiya, interfaol, o'quv jarayon, fikrlash, faoliyat, avtoritar, demokratik, liberal, tahdid, multimedia, prezentsiya, innovatsiya, umuminsoniy qadriyat.

Bugungi kunda uzlusiz ta'lif tizimida "Milliy g'oya" va "Ma'naviyat" turkumiga kiruvchi fanlarni yoshlarning qalbi, ongi va ichki dunyosiga singdirishda interfaol usullardan, yangi texnologik imkoniyatlardan foydalanish davr talabi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "O'zbekiston ilm – fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"[1] deb fikr bildirib o'tganlar.

Darhaqiqat, ta'lif tizimini modernizatsiyalashda ta'lifning barcha bo'g'inalarida tobora faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishi o'quvchi-talabalarning ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini namoyon qilishi uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda. Ta'lif tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lif jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotganligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ta'lif jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan

foydalanish maqsadga muvofiqliqdır. Jumladan, texnologiya, axborot, kompyuter, multimedia, internet, masofali o'qitish, yagona axborot muhiti va shunga o'xshash axborot-kommunikatsion texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanish o'zining samarasini bermoqda. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ta'lif – tarbiya jarayonida o'qituvchidan zamonaviy interfaol ta'lif texnologiyalaridan foydalanishni taqazo etadi. Buning uchun o'qituvchi – aqliy va ijodiy mehnati orqali tashkilotchilik, kreativlik va nutqiy mahoratiga ega bo'lgan, ta'lif-tarbiya asosida yoshlarga ta'sir ko'rsata oladigan shaxs sifatida o'rnatko'lmog'i lozim. Zero, xozirgi zamon o'qituvchi kasbiga shu darajada ko'p mas'uliyat yuklanganki, o'z ustida tinimsiz mehnat qilish, izlanish uchun juda katta kuch, iroda va sabr-toqat talab etiladi.

Buyuk alloma Ibn Sino o'zining "Tadbiri manzil" asarida dastlab bolalarmi yozish va o'qishga o'rgatishda ular jamoada, guruhda shakllanishi lozimligini ta'kidlab o'tadi. Bu bizningcha bevosita bugungi

interfaol darsni tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.

Interfaol (*"Inter"* – bu o'zaro, *"act"* – harakat qilmoq) o'zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqota bo'lishi)ni anglatadi. Interfaol ta'llimning mohiyati o'quvchilarni bir-birlaridan o'rganishlariga yo'naltirilgan ta'llim ekanligi[2]. Interfaol metodning mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa o'quvchi-talabalar miyasiga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz erkin gapirish imkoniyati beriladi. Bu jarayon ko'proq muammo, ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq sharoitlarda qo'l keladi. Aynan mana shu faoliyat ma'naviyatni yoshlar qalbi, ongi va ichki dunyosida mustahkam o'rashishi uchun asos bo'ladi, chunki ular o'zlari "O'z qo'llari" bilan buni ustida ishlaydlar. O'z mehnati bilan bo'lgan har qanday natijaning bahosi qimmatli bo'ladi. Demak, ushbu jarayonda interfaol usullardan foydalanish katta samara beradi.

Dars davomida, ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda turli xil interfaol metodlardan foydalanish lozim, chunki bugun ta'llim markazida ob'ekt ham, sub'ekt ham aynan o'quvchi-talabalarning o'zidir. Avvalo, o'qituvchi dars davomida avtoritar (tartibni saqlashi), demokratik(o'quvchilarni tinglash va to'g'ri baholash), liberal(o'zaro muloqot qilishda) ko'rinishlarini o'zida saqlashi lozim. Shundagina analistik va tanqidiy fikrlash shakllanadi hamda boshqalar fikrini hurmat qilishni rivojlantirishga ko'maklashadi, bu usul vaziyatni baholashga, xulosalar chiqarishga va qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Shu boisdan, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishda interfaol usullardan foydalaniib umumiyl o'rta ta'llim maktablarida "Tarbiya" fani asosida va oliy o'quv

yurtlarida esa "Milliy g'oya", "Ma'naviyat" darslari asosida nazariy, ya'ni faqat auditoriyada o'tishdan tashqari holda tarix va milliy madaniyat meroslari bilan tanishtiruvchi muzeylar, tarixiy obidalar, qadim shahar qoldiqlari, qal'alarga ekskursiyalar uyshtirish, taassurotlar haqida insholar yozdirishni doimiy ravishda yo'lga qo'yish, o'quvchilarning darsdan keyin bo'sh vaqtini unumli tashkil qilish, ota-onas va ta'llim muassasasi nazoratidan chetda qoldirmaslik, dars davomida o'quvchilarga multimedia, prezentsiya, slaydlar vositalari orqali ma'naviyatni tiklash va ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash ruhidagi hujjal filmlarni namoyish etib borish, barcha o'quv yurtlarda Prezident asarlari, bo'yicha maxsus kurslarning muntazamliligi va samaradorligini yanada yaxshilash, ommaviy axborot vositalar orqali ma'naviyat targ'ibotini yanada kengaytirish, milliy o'zlikni tarannum qiluvchi dasturlarni ko'paytirish, ko'zlangan maqsadga erishishning ososiy omillaridandir.

Fikrimizcha ta'llimning samaradorligini oshirishda quydagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ta'llim jarayonida ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalarining mahsuli sifatida, innovatsion texnologiyalar asosi bo'lgan interfaol metodlarni qo'llash orqali uzuksiz ta'llim tizimida o'qitish sifatini yanada yaxshilash va samaradorligini oshirishga erishish;

- ❖ respublikamizdag'i uzuksiz ta'llim muassasalari faoliyatiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'llimi amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar va interfaol pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish orqali, bevosita pedagoglarning ish tajribalarini boyitish va ularda ta'llim jarayonini samarali tashkil etishga nisbatan ijodiy, innovatsion yondashuvni qaror toptirish;

- ❖ ta'llim muassasalarida o'quvchi-talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan holda ta'llim sifatini yanada oshirish va

samaradorligini ta'minlashga doir mahalliy tajribalarni to'plash, ularni ommalashtirish.

Demak, ta'lif tizimi shunday saviyaga kelishi kerakki, ta'lif jamiyatni mustahkmalash va barqarorlashga qaratilgan ilg'or huquqiy jihatdan kafolatlashda samarali bo'lgan faoliyatni ta'minlashga ko'makla-shuvchi milliy dastur nazarda tutulishi lozim. Ana shundagina O'zbekistonlik yoshlar dunyodagi eng yuqori salohiyati bo'lgan tengdoshlari bilan bemaol bahslasha oladilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xozirgi yosh avlod shunday qobilyatga ega bo'lishi kerakki, u maqsad qo'ya oladigan va o'z oldiga qo'ygan maqsadni yecha oladigan bo'lishi kerak, yuqori madaniy saviyada mustaqil fikrlay olishi va ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda o'z o'rmini topa olishi lozim.

Biz milliy g'oya, ma'naviyat, milliy mafkura, milliy g'urur, umuminsoniy qadriyat kabi oliy insoniy tushunchalarni dars jarayonida interfaol usullar orqali o'qitish bo'yicha foydalanish samarali bo'lgan metodlarni asos qilib oldik.

SCORE – 2 metodi

Mavzu: *Yot va zararli g'oyalarning ko'rinishlari, ularning oldini olishda milliy g'oyaning o'rni va ahamiyati*

Topshiriq:

Muammo: _____

Simptom (S – symptom) – Bu muammoning simptomi (belgisi) qanday?

Sabablari (C – cause) – Bu muammo simptomining sabablari qanday?

Natijasi (O – outcome) – Bu muammoni hal qilishga nisbatan kutilayotgan natija yoki maqsad qanday?

Resursi (R – resources) – Qanday resurs ushbu sababni bartaraf etishga yordam beradi? Qaysi resurs natija beradi?

Samarasi (E – effect) – Ushbu maqsadga erishish uzoq kutilgan qanday samaraaga olib

keladi? _____

Yechim

Muammo: Keyingi oyлarda mamlakatimiz ijtimoiy tarmoqlarida "Ko'k kit" degan tashvishli ibora paydo bo'ldi. Ota-onalarda Bolalarimizni "Ko'k kit" dan qanday himoya qilaylik?", Ogoh ota-onal" bo'lish uchun tarbiyaning qaysi usullarini, qachon, qanday qo'llash kerak? degan haqli savollar tug'ilmoqda. Bugun har bir ota-onanining mana shu aniq savollarga aniq javoblari bo'lishi kerak. Bugun global axborot olamida "Ko'k kit" deb atalgan o'yin hammani o'ylatib qo'ydi. Internetda bu muammo haqidagi dastlabki shov-shuvlar 2015 yildan boshlangan. Internetda "Ko'k kit", "Tinch uy", "f58", "f57" kabi "o'lim guruhlari" haqida turli fakt va ma'lumotlar bor: "Ko'k kit" ni 18 yoshga to'imagan, mustaqil fikri, qiziqqan mashg'uloti yo'q o'smirlar qiziqtiradi. Boshida oson, qiziq topshiriqlar berib o'smirning ichiga kirib oladi. Keyinchalik tanasiga tig' bilan ko'k kitning suratini chizdirib, bitta kuyni 3 kun tinimsiz tinglab, topshiriqlarni bajargan o'smirlarni maqtab, tabriklaydi. Bu niroyat 50 kunda so'nggi – 50 topshiriq (suiqasd) ni bajartirib, uni videoaga olishni o'rgatuvchi o'lim o'yini, deyiladi.

Simptom (S-symptom) – bu muammo simptomining asosiy sabablari o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, qalbi va ichki dunyosiga ta'sir etish orqali uning ma'naviy dunyosini izdan chiqaradi.

Sabablari (C-cause) - "Ko'k kit" bu – o'smirlar ongiga hujum qilayotgan yangi ma'naviy tahdid! Chunki, birinchidan, bu trend-tahdid o'ziga 18 ga to'imagan yoshlarni, o'smirlarni nishonga olgan. Demak, O'zbekiston o'smir-yoshlarini ham. Ikkinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtini, ixtiyorini va qiziqishlarini egallahga yo'naltirilgan. Uchinchidan, yoshlarni g'oyaviy qul qilib, ularni o'z qo'l-oyoqlaridan foydalanib qurban qilmoqchi. To'rtinchidan, uning maqsadlari bizning Harakatlar

strategiyamizga, yoshlarga oid siyosatiga, o'zbekistonlik ota-onalar, ustoz-murabbiylar, yoshlarimizning maqsadlariga zid.

Natijasi (O-outcome) Yoshlarning bu kabi turli xil yot va zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklari uchun har tomonlama mafkuraviy qurollantirishni zamonnanning o'zi talab qilmoqda. Shunday ekan "Al Beruniy, Ibin Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'ioniy, Abu Mansur Moturudiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk allomalarimiz asarlari milliy ma'naviyatizing bosh g'oyasi asosida shakllantirilmog'i darkor.

Resursi (R-resources) birinchidan biz yoshlarimizni bu kabi tahdidlardan ogoh etishimiz hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash uchun targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Ikkinchidan, yoshlar bo'sh vaqtlarini chet tillarini o'rghanishga, sport va boshqa qiziqqan mashg'ulotlari bilan shug'llanishlaridan tashqari targ'ibot guruhlarini shakillantirish masalalariga alohida e'tibor berish lozim. Shundagina o'smir-yoshlariga hech qanday tashqi kuchlarning ta'siri bo'lmaydi. Uchinchidan, mahallalarda, uzlusiz ta'lim tizimlarda ma'naviy - ma'rifiy tanlovlari, treninglar, tadbirlar hamda targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamoniaviy infarmatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgan samarali usl va uslublarni ishlab chiqish.

Samarasi (E-effect) – Biz uchun yagona mafkura – bu O'zbekistonning taraqqiyoti, O'zbekistonning ravnaqi, O'zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo'lmaglidir. Ma'naviyat qachon engilmas kuchga aylanadi? qachonki, yoshlarning iste'dodi va shijoati, orzu-maqsadlari jasorat, buniyodkorlik va matonat namunasiga aylansagina! Ma'naviy barkamol insonni, sog'lom-avlodni tarbiyalashga erishamiz. Zero bu bugungi kun davr talabidir.

Fikr. Mulohaza. Isbot metodi.

Darsning mavzusi: Ma'naviyatga tahdidlarning oldini olishda milliy g'oyaga tayanish zarurati

Darsning maqsadi: Ma'naviy tahdid, g'oyaviy tazyiq va tajovuz tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati va yuzaga kelish shart-sharoitlari. Global miqyosdagi ma'naviy tahdidlar, ularning mazmun-mohiyati. O'zbekistonda ma'naviy tahdidlarni oldini olishning shart-sharoitlari va omillari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari, texnik-tehnologik imkoniyatlari. Ma'naviyatga tahdidlarning oldini olishda milliy g'oyaning ahamiyatini singdirish.

Vazifasi: **F** - Fikringizni bayon eting; Ma'naviy tahdid insonning ongi, dunyoqarashi va ahloqiga daxl qilishi bilan jiddiy xavf hisoblanadi. Bu xavf ko'zga ko'rinnmasada, lekin uning keltiradigan zarari yuqumli kasalliklardan kam emas. SHu ma'noda tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldag'i ba'zi siyosatchi va arboblar nafaqat siyosat yoki iqtisod, balki ma'naviyat bobida ham bizga aqil o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda.

S - Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating: Ma'naviy tahdidlar. Biz uchun mutloqa begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir.

M – Fikringizga misol keltiring: Misol uchun, ana shunday begona mafkuralardan biri – milliy taraqqiyot modeliga ishonchsizlik bilan qarashni targ'ib qilishdir. Unga ko'ra, insonda milliy taraqqiyot modeliga shubha bilan qarash hosil qilinadi va uning "yoni"da o'zga davlatlarning taraqqiyot modeliga havas qilish uyg'otiladi. Biz uchun begona dunyoqarashlardan biri – mutaassiblikdir. Unga ko'ra, shaxs o'z tushunchalarini mutloq haqiqat deb qabul qiladi va o'zga qarashlarni esa asossiz inkor qiladi.

U – Fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang. Ma’naviy tahdidlarni bartaraf qilish muammosi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, ma’naviy tahdidlarni “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya va jaholatga qarshi ma’rifat bilan bartaraf qilish mumkin”. Bu muhim qarash bo‘lib, hozirgi ma’naviy-mafkuraviy faoliyatimizda metodologiya vazifasini o‘tamoqda. Xalqimiz ma’naviy va axloqiy qadriyatlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy iftixon, bag‘rikenglik kabi xususiyatlar ustuvordir. Ularni izchil targ‘ib qilib borish bilan ma’naviy tahdidlarga g‘oyaviy zarba berish mumkin.

“FSMU” mantiqiy fikrlashga o‘rgatuvchi texnologiya.

Ushbu texnologiya munozaraliy masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (tinglovchilarining o‘quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanishi mumkn, chunki bu texnologiya tinglovchilarini o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarini, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalliklarini baholashga hamda tinglovchilarini bahslashish madaniyatiga o‘rgatishga xizmat qiladi.

Demak, bugungi globallashuv sharoitda milliy g‘oyani xar bir inson, ayniqsa yoshlarningongi, qalbi, ongi va ichki dunyosiga interfaol usullar orqali singdirish ularda ma’naviy, axloqiy, tarbiyaviy sifatlarni har tomonlama shakllantirish, xozirgi kunning talabidir. Zero, millat taraqqiyoti,

ma’naviyati va madaniyati yuksak bilimli biz yoshlarga bevosita bog‘liqdir.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, quyidagicha xulosalarni keltirishimiz mumkin:

- Ilg‘or xorijiy tajribalar sifatida milliy g‘oyani ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qitish sifatini yaxshilash va samaradorligini yanada oshirishga erishish maqsadga muvofiqdir;

- Interfaol ta’lim texnologiyalari va uning muhim tarkibiy elementi bo‘lgan interfaol usullar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini ta’minlaydi. Zero, zamonaviy ta’lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog‘liqlikda ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini taqoza etadi, bu esa bugungi kun davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 23 dekabr.
2. Ishmuhamedov R., Yoldoshev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - T.: “Adabiyot uchqunlari” 2017. - B. 14.
3. Karimov I.A Biz tanlagan yo‘l — demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. - T.: “O‘zbekiston”, 2003 yil, 34-bet.
4. Tashanov A. “Vayronkor g‘oyalari va buzg‘unchi mafkuralar” (ma’naviyatga tahdid soluvchi illatlar) T: “Turon zamin ziyo” 2015 yil, 236-237 betlar.
5. To‘rayev Sh. “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanidan ma’ruza matnlari Toshkent-2015 yil, 65-66 bet.

**IN THE PENETRATION OF THE NATIONAL IDEA INTO THE MINDS AND HEARTS OF
YOUNG PEOPLE SOME ASPECTS OF USING INTERACTIVE METHODS**

Tashmetov Tukhtasin Khudaiberganovich

*Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University,
Doctor of Philosophy (PhD)*

Abstract: such higher human concepts as national idea, spirituality, national ideology, national pride, universal human value, it is advisable to instill interactive methods in the course of the lesson. Therefore, interactive methods imply achieving high results in a short time without unnecessary mental and physical effort. Only then will Uzbek youth be able to freely argue with peers with the highest potential in the world. After all, the current young generation should have such abilities as the ability to set goals and solve tasks, be able to think independently at a high cultural level and find their place in social, political, and economic life -this is the requirement of the era of today.

Keywords: education, spirituality, technology, information communication, modernization, computer, multimedia, creativity, personality, family, national idea, spirituality, ideology, culture, technology, interactivity, educational process, Thinking, activity, authoritarian, democratic, liberal, threat, multimedia, presentation, innovation, universal value.

**В ПРОНИКНОВЕНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В УМЫ И СЕРДЦА
МОЛОДЕЖИ НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ
МЕТОДОВ**

Ташметов Тухтасин Худайберганович

*доцент Чирчикского государственного педагогического университета
доктор философии (PhD)*

Аннотация: такие высшие человеческие понятия, как национальная идея, духовность, национальная идеология, национальная гордость, общечеловеческая ценность, целесообразно прививать интерактивными методами в процессе урока. Поэтому интерактивные методы подразумевают достижение высоких результатов в короткие сроки без лишних умственных и физических усилий. Только тогда узбекская молодежь сможет свободно спорить со сверстниками, обладающими самым высоким потенциалом в мире. Ведь нынешнее молодое поколение должно обладать такими способностями, как умение ставить цели и решать поставленные задачи, уметь самостоятельно мыслить на высоком культурном уровне и находить свое место в социальной, политической, экономической жизни-это требование эпохи сегодняшнего дня.

Ключевые слова: образование, духовность, технология, информация коммуникация, модернизация, компьютер, мультимедиа, креативность, личность, семья, национальная идея, духовность, идеология, культура, технология, интерактивность, образовательный процесс, Мышление, активность, авторитарный, демократический, либеральный, угроза, мультимедиа, презентация, инновации, универсальная ценность.